



## “ANTROPOTSEN DAVRIDA INSONIYAT:GLOBAL JARAYONLAR VA BARQAROR TARAQQIYOTNING FALSAFIY DIALEKTIKASI”

**Xo'jamova Madinabonu Naimjon qizi**

**Olimova Shaxzoda Behzodqizi**

**Farhodova Gulhayo Sanjar qizi**

*Shahrisabz davlat pedagogika instituti*

*Xorijiy til va adabiyot yo'nalishi 1-kurs talabalari*

*Murojaat uchun:*

[xojamovamadinabonu2@gmail.com](mailto:xojamovamadinabonu2@gmail.com)

[ucbazam@gmail.com](mailto:ucbazam@gmail.com)

[gulhayofarkhodova55@gmail.com](mailto:gulhayofarkhodova55@gmail.com)

**Annotatsiya:** Insoniyat tarixida shunday bosqich mavjudki, u inson faoliyatining tabiatga ta'siri shu darajaga yetadiki, u butun sayyoraviy tizimni o'zgartira boshlaydi. Ana shunday bosqichni olimlar "Antropotsen" deb atashmoqda. Bu atama geologik davrlar tasnifida yangi bo'limni tashkil etadi va unda inson faoliyatining Yerdagi geologik, biologik va iqlimiylar jarayonlarga ta'siri muhim o'rinn tutadi. Ushbu maqola Antropotsen davrining mohiyatini, global jarayonlarga ta'sirini, barqaror taraqqiyotga olib kelgan ziddiyat va muvozanatlarni, hamda bu jarayonlarning falsafiy-dialektik tahlilini o'rganishga bag'ishlanadi.

**Kalit so'zlar:** Antropotsen tushunchasi, inqilob, Dekard, Bekon, dialektika, barqaror taraqqiyot, BT konsepsiysi, BMT, ijtimoiy o'zgarishlar, planetar chegaralar, globallashuv, Paul Crutzen, ekologik omillar

**Abstrack:** There is a stage in human history when the impact of human activity on nature reaches such a level that it begins to change the entire planetary system. Scientists call such a stage the "Anthropocene". This term constitutes a new section in the classification of geological eras, in which the impact of human activity on geological, biological and climatic processes on Earth plays an important role. This article is devoted to studying the essence of the Anthropocene era, its impact on global processes, the conflicts and balances that led to sustainable development, as well as the philosophical and dialectical analysis of these processes.

**Keywords:** Anthropocene concept, revolution, Deckard, Bacon, dialectics, sustainable development, the concept of the UN, the UN, social changes, planetary boundaries, globalization, Paul Crutzen, environmental factors

**Аннотация:** В истории человечества наступает этап, когда воздействие человеческой деятельности на природу достигает такого уровня, что



начинает изменять всю планетарную систему. Ученые называют этот этап «антропоценом». Этот термин представляет собой новый раздел в классификации геологических периодов, в котором важную роль играет влияние деятельности человека на геологические, биологические и климатические процессы на Земле. Статья посвящена изучению сущности эпохи антропоцена, ее влияния на мировые процессы, конфликтов и дисбалансов, приведших к устойчивому развитию, а также философско-диалектическому анализу этих процессов.

**Ключевые слова :** Концепция антропоцена, революция, Декард, Бэкон, диалектика, устойчивое развитие, концепция ООН, ООН, социальные изменения, планетарные границы, глобализация, Пауль Крутцен, экологические факторы.

### **Antropotsen: Tushuncha va tarixiy kontekst**

"Antropotsen" termini ilk bor 2000-yilda kamyogar va atmosfera olimi Paul Crutzen tomonidan ilmiy muomalaga kiritilgan. U bu atama orqali insoniyat faoliyatining Yer sistemasiga geologik o'lchamdagagi ta'sirini ifodalamoqchi bo'ldi. Antropotsen – bu odamzodning texnologik, iqtisodiy va ijtimoiy faoliyati natijasida tabiiy muhitda yuzaga kelgan keskin o'zgarishlar davri. Ilgari insoniyat neolit davrida yer haydash va dehqonchilik orqali tabiatga bevosita aralashishni boshlagan bo'lsa, industrial inqilob bilan bu jarayon tezlashdi. XX asrga kelib, texnologiyaning keskin rivojlanishi, urbanizatsiya, global energiya iste'moli va biotizimlarga bo'lgan bosim insoniyatni yangi geologik bosqichga olib kirdi. Ayniqsa, "Buyuk Akseleratsiya" deb nom olgan 1950-yillardagi jarayon insoniyatning global ekotizimlarga ta'sirini keskin oshirdi. Tarixiy kontekstda Antropotsen bosqichining boshlanishi bo'yicha turli yondashuvlar mavjud. Ba'zilar uni sanoat inqilobidan, boshqalar esa atom sinovlarining boshlanishidan (1945) yoki qishloq xo'jaligida kimyoviy o'g'itlar keng qo'llanila boshlagan davrdan boshlab hisoblaydi. Bu davrni aniq sanalarga bog'lash murakkab bo'lsa-da, uning asosiy belgisi — inson faoliyatining global geologik iz qoldira boshlaganidir.

### **Antropotsenning asosiy xususiyatlari**

Antropotsen davri quyidagi jihatlar bilan ajralib turadi: Atmosferaga karbonat gazlarining ortiqcha chiqishi, xususan, CO<sub>2</sub> va CH<sub>4</sub> darajalarining sanoatgacha bo'lgan darajadan keskin oshishi;

Global isish va iqlim o'zgarishi — muzliklarning erishi, dengiz sathining ko'tarilishi, ekstremal ob-havo hodisalarining ko'payishi;



Biologik xilma-xillikning kamayishi — minglab turdag'i hayvonot va o'simliklarning yo'qolishi;

Yer resurslarining haddan ortiq ekspluatatsiyasi yer osti boyliklari, o'rmonlar, suv zaxiralari;

Plastmassa va sun'iy materiallarning yer qobig'ida saqlanib qolishi va mikroplastiklarning global miqyosda tarqalishi.

Bu omillar ekologik tizimlarning notejis buzilishiga, tabiiy ofatlarning ko'payishiga, cho'llanish, suv tanqisligi va oziq-ovqat xavfsizligi kabi global muammolarning keskinlashuviga olib kelmoqda. Masalan, Amazon o'rmonlarining kamayishi, Arktika muzliklarining yo'qolishi va Orol dengizingining qurib borishi — bularning barchasi antropotsen davrining ifodasidir.

Yana bir muhim xususiyat bu — "planetar chegaralar" tushunchasidir. Bu kontseptsiya doirasida insoniyat uchun ekologik xavfsizlik chegaralari belgilanadi. Bugungi kunda bu chegaralarning to'qqiztasidan to'rttasi allaqachon buzilgan: iqlim o'zgarishi, biokimyoiy oqimlar, biosferani yo'qotish va yer yuzasi o'zgarishi.

### **Insoniyat va tabiat: Falsafiy dialektik munosabat**

Falsafa tarixida inson va tabiat o'rtasidagi munosabatlar turlicha talqin etilgan. Antik davr faylasuflari tabiatni muqaddas va uyg'un tizim sifatida ko'rgan bo'lsa, Yevropa uyg'onish davridan boshlab inson tabiat ustidan hukmron subyekt sifatida qarala boshlandi. Dekart, Bekon kabi faylasuflar tabiatni "o'rganilishi va zabit etilishi kerak bo'lган obyekt" sifatida tasvirladilar. Bu esa ilm-fan taraqqiyoti va industrial rivojlanishning mafkuraviy asosiga aylandi. Dialektika nuqtai nazaridan, inson va tabiat o'rtasidagi munosabatlar harakatda va qarama-qarshilikda namoyon bo'ladi:

Inson tabiatga ta'sir ko'rsatadi, lekin tabiat ham inson faoliyatini cheklaydi;

Taraqqiyot va texnologik o'sish — tabiatdagi izolyatsiya va degradatsiyani kuchaytiradi;

Shu bilan birga, insoniyat tabiat bilan uyg'unlikda yashash zarurligini anglay boshlaydi;

Bu dialektika yangi madaniy ong, ekologik ong va falsafiy tafakkur zarurligini keltirib chiqaradi.

Gegel, Marks, Spinoza kabi faylasuflar tabiat va ong o'rtasidagi birlik va o'zaro bog'liqlikka urg'u berib, insonning tabiatdan ajralgan emas, balki uning bir qismi ekanini asoslab bergen. Zamonaviy ekologik falsafa ham insoniyatni bio-tizimlar bilan birgalikda mavjud bo'lган mavjudot sifatida tasvirlaydi.

### **Barqaror taraqqiyot va antropotsen**

Barqaror taraqqiyot (BT) konsepsiysi Antropotsen davrida yana-da dolzarb tus oldi. 1987-yilda Brundtland hisobotida "barqaror taraqqiyot" shunday ta'riflangan:



"hozirgi avlod ehtiyojlarini qondirgan holda, kelajak avlodlarning ham ehtiyojlarini qondirish imkoniyatini saqlab qoluvchi rivojlanish".

BT konsepsiysi uchta asosiy ustun asosida quriladi:

- 1.Ijtimoiyadolat
- 2.Ekologik barqarorlik
- 3.Iqtisodiy o'sish

Antropotsen davrida bu uch ustun ko'plab ziddiyatlarga duch kelmoqda. Masalan, iqtisodiy o'sish ko'pincha ekologik barqarorlikni qurban qiladi. Bu esa yangi yondashuvlarni "yashil iqtisodiyot", "tsirkulyar iqtisodiyot", "ekologik etik" va "ekologik demokratiya" tushunchalarini ilgari surmoqda. Shuningdek, BMT tomonidan ilgari surilgan 17 ta Barqaror Taraqqiyot Maqsadlari (BTM) Antropotsen davridagi global chaqiriqlarga javob berish uchun ishlab chiqilgan. Bu maqsadlar ichida iqlim o'zgarishiga qarshi kurashish, toza suv va sanitariya, yer resurslaridan oqilona foydalanish, biologik xilma-xillikni saqlash kabilar bevosita ekologik xavfsizlik bilan bog'liq.

### **Texnologik taraqqiyot va ijtimoiy o'zgarishlar**

Antropotsen davri texnologiyaning tez sur'atlar bilan rivojlanishini o'z ichiga oladi. Insoniyatning texnologik o'sishi tabiiy resurslarning ekskavatsiyasiga, energiya ishlab chiqarish usullarining o'zgarishiga, kommunikatsiya tizimlarining rivojlanishiga va inson hayotining barcha sohalarida chuqr o'zgarishlarga olib kelgan. Elektr energiyasini ishlab chiqarish, transport va sanoatning avtomatizatsiyasi, ma'lumot texnologiyalarining rivojlanishi bularning barchasi ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik tizimlarda jiddiy o'zgarishlarni yuzaga keltirgan.

Antropotsen davri insoniyat tarixinining yangi bir bosqichi bo'lib, bu davrda insonning tabiiy tizimlarga bo'lgan ta'siri geologik va ekologik o'zgarishlarga olib kelgan. Tabiat va inson o'rtasidagi munosabatlar yangicha bir dialektikaga ega bo'lib, b arqaror taraqqiyot, ekologik muvozanat va ijtimoiyadolat kabi masalalar dunyo miqyosida markaziy o'rinni egallaydi. Insoniyat uchun antropotsenning asosiy mas'uliyati — tabiiy resurslarni oqilona boshqarish, ekologik va ijtimoiy barqarorlikni saqlashdir. Barqaror taraqqiyotga erishish uchun zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, ijtimoiy strukturalarni yangilash va madaniy o'zgarishlar amalga oshirilishi zarur. Kelajakda insoniyatning muvaffaqiyati nafaqat iqtisodiy o'sishda, balki ekologik etikani, barqaror energiya tizimlarini va ijtimoiy tenglikni ta'minlashda bo'ladi. Antropotsen davrida yashashni yaxshilash uchun tabiiy muhitga bo'lgan yondoshuvni qayta ko'rib chiqish va unga qarshi mas'uliyatliz pozitsiya olish, axloqiy va falsafiy asoslar orqali barqaror rivojlanishni ta'minlash muhimdir.



## Foydanilgan adabiyotlar:

1. Crutzen, P. J., & Stoermer, E. F. (2000). The 'Anthropocene'. Global Change Newsletter, 41, 17–18.
2. Rockström, J., Steffen, W., Noone, K., Persson, Å., Chapin, F. S., Lambin, E. F., & Lenton, T. M. (2009). A safe operating space for humanity. *Nature*, 461(7263), 472–475.
3. Sachs, J. D. (2015). The Age of Sustainable Development. Columbia University Press.
4. Lehman, B. A. (2013). The Ethics of Sustainability: A Conceptual Analysis. *Environmental Ethics*, 35(3), 245–267.
5. Giorgio, B. (2018). The Anthropocene: A New Epoch in Human History. *Journal of Anthropocene Studies*, 3(1), 14–30.
6. Aralovna, Ochilova Guzal, et al. "Ecological globalization and its social place in the globalization system of processes." *Journal of Survey in Fisheries Sciences* 10.1S (2023): 5000-5006.
7. Ayonovna A. S. IN THE CONTEXT OF ENVIRONMENTAL GLOBALIZATION, THE NEED FOR ENVIRONMENTAL EDUCATION BECOMES A PRIORITY //American Journal Of Social Sciences And Humanity Research. – 2024. – T. 4. – №. 07. – C. 30-35.
8. Omonov, Bakhodir Nurillaevich, Go'zal Aralovna Ochilova, and Sitora Ayonovna Azamova. "SPECIFIC CHARACTERISTICS OF THE ECOLOGICAL ENVIRONMENT IN UZBEKISTAN." *World of Scientific news in Science* 1.3 (2023): 15-28.
9. Ayonovna, Azamova Sitora. "The Need for the Formation of Environmental Education and Upbringing in Young People in the Conditions of Environmental Globalization." *Global Scientific Review* 13 (2023): 7-10.
10. Ayonovna, Azamova Sitora, and Pirimov Lerik Xudoyberdi o'g'li. "EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHDA EKOLOGIK OMIL TUSHUNCHASI ." *TADQIQOTLAR. UZ* 40.4 (2024): 135-139..
11. Ayonovna A. S. IN THE CONTEXT OF ENVIRONMENTAL GLOBALIZATION, THE NEED FOR ENVIRONMENTAL EDUCATION BECOMES A PRIORITY //American Journal Of Social Sciences And Humanity Research. – 2024. – T. 4. – №. 07. – C. 30-35..
12. Shahrishabz A. S. A. THE USE OF THE SCIENTIFIC HERITAGE OF ORIENTAL SCIENTISTS IN THE FORMATION OF ECOLOGICAL CULTURE AMONG SCHOOLCHILDREN IN THE CONTEXT OF ECOLOGICAL GLOBALIZATION //International Scientific and Current Research Conferences. – 2024. – C. 94-97.
13. Azamova S. EKOLOGIK TA'LIM VA TARBIYANING RIVOJLANISH BOSQICHLARI //Talqin va tadqiqotlar. – 2024. – T. 1. – №. 1.